

1	EMITENT NOMI:	
	To'liq	"Kapitalbank" aksiyadorlik-tijorat banki
	Qisqartirilgan	"Kapitalbank" ATB
	Birja stikeri nomi:	KPB
2	BOG'LANISH MA'LUMOTLARI	
	Joylashgan manzili:	Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Sayiloh ko'chasi, 7-uy
	Pochta manzili:	Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Sayiloh ko'chasi, 7-uy
	Elektron pochta manzili:	info@kapitalbank.uz
	Rasmiy veb-sayt	www.kapitalbank.uz
3	TASHKILOTNING QO'SHIMCHA MA'LUMOTLARI	
	Qimmatli qog'ozlar chiqarilishini ro'yxatga oluvchi vakolatli davlat organi	O'zbekiston Respublikasi bozor kapitalini rivojlantirish agentligi
	Ro'yxat raqami	RO804-4
	Qimmatli qog'ozlar chiqarilishini ro'yxatga olish sanasi	24.04.2020
	Faoliyatining asosiy yo'nalishlari va ishlab chiqaradigan mahsulot (xizmatlar) turlari	Bank faoliyati
	Emitentda mustaqil reyting bahosi mavjudligi. Uning qisqacha tavsifi keltirilsin	<p>"Ahbor-Reyting" reyting agentligi "Kapitalbank" ATB ga "UzA" milliy shkalasidagi (prognoz-"Barqaror") kredit reytingini bergan. "Kapitalbank" ATB ga berilgan reyting bankning ijobiy obro'si va imijini, korporativ xizmat bozorida kuchli pozitsiyasini, aktivlarining yuqori sifati va xavf-menejmentining yaxshi darajasini, muvozanatlashgan likvid pozitsiyasi va mutanosib kapitallashuvini aks ettiradi. Reyting bo'yicha "Barqaror" prognozi "Ahbor-Reyting" RA tomonidan bankning bozordagi barqaror pozitsiyalari saqlanishi, shuningdek, bankning foydaliligi yaxshilanishi, mutanosib kapitallashuvni qo'llab-quvvatlashi va aktivlarining yaxshi sifati kutilayotganligini bildiradi.</p> <p>"Standart & Poor's" xalqaro reyting kompaniyasi "Kapitalbank" ATB ga V-/V barqaror kredit reytingini bergan.</p> <p>"Moody's" xalqaro reyting kompaniyasi "Kapitalbank" ATB ga V3/V2 barqaror kredit reytingini bergan.</p>
4	Qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qarorga muvofiq qimmatli qog'ozlarni chiqarish va joylashtirish shartlari	
	Chiqarish aksiyalarining turi	Naqd pulsiz shakldagi nomli, foizli korporativ obligatsiyalar
	Chiqarish aksiyalarining soni	50 000 dona
	Chiqarilish aksiyasining nominal qiymati, so'm	1 000 000 so'm
	Chiqarilishning umumiy hajmi (nominal qiymati bo'yicha), so'm	50 000 000 000 so'm
	Chiqarilishning har bir aksiyasi tomonidan beriladigan huquqlar	<p>Ushbu chiqarilishning har bir obligatsiyasi uning egasiga bir xil miqdordagi huquqlarni beradi. Obligatsiya egasi obligatsiyalar so'ndirilish vaqtida ko'zda tutilgan muddatda obligatsiyalarning nominal qiymatini olishga haqlidir. Obligatsiya egasi obligatsiya nominal qiymatidan foizlar ko'rinishidagi foizli daromadni olish huquqiga ega. "Kapitalbank" ATB tugatilgan va/yoki qayta tashkil etilgan taqdirda, ushbu obligatsiyalar bo'yicha talablarni qondirish depozitorlar va boshqa kreditorlar talablari qondirib bo'linganidan keyin amalga oshiriladi. Ushbu chiqarilish obligatsiyalari garov bilan ta'minlangan hisoblanmaydi. Obligatsiyalar emitent yoki u bilan bog'liq shaxslar tomonidan boshqa aktivlar bo'yicha ta'minot yoki kafolat sifatida taqdim etilmagan, "Kapitalbank" ATB tugatilgan vaqtida ular bo'yicha to'lovlar navbati o'zgarmaydi, ya'ni ular depozitorlar va kreditorlar talablariga tenglashtirilmaydi.</p> <p>"Kapitalbank" ATB obligatsiya egalari oldida, chiqarilish aksiyalari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq nozir bo'lmagan</p>

		yoki haqiqiy emas deb tan olinsa, investitsiyalash mablag'larini qaytarishni ta'minlash majburiyatini oladi. Obligatsiyalar egasi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan boshqa huquqlarni ham amalga oshirishga haqli. "Kapitalbank" ATB obligatsiya egalarining huquqlarini, agar ular ushbu huquqlarni amalga oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan belgilangan tartibga rioya qilgan taqdirda, ta'minlash majburiyatini oladi.
4	Aksiyalarni joylashtirish usuli, shuningdek, yopiq obuna holatida, ular o'rtasida joylashtirish amalga oshiriladigan shaxslar doirasi ko'rsatiladi	Aksiyalarni joylashtirish investorlarning potensial cheklanmagan doirasi o'rtasida ochiq obuna yo'li bilan amalga oshiriladi. Shuningdek, ushbu chiqarilish aksiyalari "Toshkent" respublika fond birjasida birja qoidalari bilan belgilangan tartibda bitimlar tuzish orqali joylashtiriladi.
	Aksiyalar joylashtirishning boshlanish sanasi	Aksiyalar joylashtirishning boshlanish sanasi – ushbu aksiyalar chiqarilishini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq davlat ro'yxatiga olingan sanasi e'lon qilinganidan keyin o'n beshinchi kun
	Aksiyalar joylashtirishning tugash sanasi	Aksiyalar joylashtirishning tugash sanasi – investorga oxirgi obligatsiyani sotish sanasi, biroq korporativ obligatsiyalarni chiqarish to'g'risidagi ushbu qaror O'zbekiston Respublikasi bozor kapitalini rivojlantirish agentligi tomonidan davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab 365 kundan ortiq bo'lmagan muddatda.
	Aksiyalarni joylashtirish tartibi	Ushbu chiqarilish aksiyalarini joylashtirish "Toshkent" respublika fond birjasi qoidalari bilan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.
	Ushbu chiqarilish aksiyalarini joylashtirish narxi (narxleri) yoki ularni belgilash tartibi	Ushbu chiqarilish aksiyalari bozor qiymati bo'yicha, biroq nominal qiymatidan past bo'lmagan qiymatda joylashtiriladi. Nominal qiymati 1 000 000 (bir million) so'mga teng.
	Aksiyalarga to'lov shartlari va tartibi, shu jumladan, hisob-kitob shakllari, aksiyaga to'lovlar uchun mablag'lar o'tkazilishi lozim bo'lgan bank hisobraqamlari	Joylashtirish vaqtida obligatsiyalar to'lovi uchun pul mablag'lari, obligatsiyalarni oldi-sotdisi bo'yicha tuzilgan bitimlariga muvofiq, bir martalik to'lov bilan, naqd pulsiz ko'rinishda, O'zbekiston Respublikasi pul birligida (so'm) "Kapitalbank" ATB (bank kodi 01088) 29896000500001088666-hisobraqamiga o'tkaziladi.
	Aksiyalarni chiqarish bo'yicha qaror qabul qilgan emitent organi va qaror sanasi	"Kapitalbank" ATB Kuzatuv Kengashining qarori, 2020-yil 12-martdagi 11-sonli bayonnoma.
	Aksiyalar emissiyasiga bank ustavida belgilangan har qanday cheklovlar, joylashtirilgan aksiyalarni sotib olishi mumkin bo'lgan xaridorlarga nisbatan cheklovlar	"Kapitalbank" ATB ustavida joylashtirilgan aksiyalarni sotib olishi mumkin bo'lgan xaridorlarga nisbatan cheklovlar ko'zda tutilmagan.
	Sotib olingan aksiyalar bo'yicha investor oladigan daromadni soliqqa tortish	Obligatsiyalar bo'yicha daromadlarni soliqqa tortish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.
	Aksiyalarni chiqarish maqsadi	Bank tomonidan obligatsiyalarni chiqarish kapitalni uzoq muddatli va barqaror ravishda jalb etish maqsadida amalga oshiriladi.
	Obligatsiyalarni muomalaga chiqarish shartlari	Obligatsiyalarni muomalaga chiqarish ularni oldi-sotdisi, shuningdek, amaldagi qonunchilikda ko'zda tutilgan, obligatsiyalar egalarining almashinuviga olib keluvchi boshqa harakatlar orqali amalga oshiriladi. Obligatsiyalar birjada va birjadan tashqaridagi qimmatli qog'ozlar bozorida sotilishi mumkin. Obligatsiyalar qimmatli qog'ozlar bozorida investorlar tomonidan sotiladi. Obligatsiyalar bilan bitimlar qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi va ro'yxatga olinadi. Tashkil etilgan bozorlarda obligatsiyalarni sotish va sotib olish mazkur qimmatli qog'ozlarga bo'lgan amaldagi talab va takliflardan kelib chiqib, qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchisining qoidalari muvofiq amalga oshiriladi. Obligatsiyalarga huquqlar oluvchiga belgilangan tartibda uning depo hisobraqamiga tegishli yozuv tushgan vaqtdan boshlab o'tkaziladi va depo hisobraqamidan qonunchilik bilan belgilangan tartibda Markaziy

		<p>depozitariy tomonidan berilgan ko'chirma bilan tasdiqlanadi. "Kapitalbank" ATB obligatsiyalar egalari tomonidan ularning Markaziy depozitariy taqdim etgan reyestrda ko'rsatilgan rekvizitlarining (xizmat ko'rsatish bankining nomi va kodi, hisobraqamlar nomerlari) ishonchligi uchun javobgar emas. Obligatsiyalarni muomalaga chiqarish ushbu chiqarishni qonunchilikda belgilangan tartibda davlat ro'yxatiga olinganidan keyin amalga oshiriladi. Obligatsiyalarni chiqarish davlat ro'yxatiga olinib, O'zbekiston Respublikasi Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi tomonidan hisobga qo'yilganidan keyin, obligatsiyalar emitentning "Alp Omad Invest" MCHJ Investitsion Vositachisidagi DEPO hisobraqamiga kiritiladi. Obligatsiyalarning muomaladagi muddati – obligatsiyalarni joylashtirish boshlangan sanasidan boshlab 2 555 (Ikki ming besh yuz ellik besh) kun. Bunda obligatsiyalar bo'yicha foiz daromadlari har oyda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash joriy stavkasi bo'yicha, plus joriy oyni 1-kuniga amalda bo'lgan 5% yillik to'lanadi.</p>
4	<p>Qimmatli qog'ozlarga to'lovlar pul mablag'larisiz bajarilgan bo'lsa, qimmatli qog'ozlarga to'lanishi mumkin bo'lgan mol-mulk ro'yxati ko'rsatilsin</p>	<p>Obligatsiyalarga to'lovlar faqat pul mablag'lari bilan amalga oshiriladi.</p>
	<p>Chiqarishdagi qimmatli qog'ozlarning u joylashtirilmagan taqdirda chiqarish nozir bo'lmagan deb hisoblanadigan ulushi</p>	<p>Joylashtirish muddati ichida ushbu chiqarishdagi obligatsiyalar umumiy sonining 30 foizdan kami joylashtirilgan taqdirda, obligatsiyalar chiqarilishi nozir bo'lmagan deb hisoblanadi. Ushbu obligatsiyalar chiqarilishi nozir bo'lmagan deb e'lon qilingan taqdirda, bank qonunchilikda ko'rsatilgan tartibda xabarnoma joylashtiradi.</p>
	<p>Qimmatli qog'ozlar chiqarilishi nozir bo'lmagan deb tan olingan taqdirda, emitent tomonidan qimmatli qog'ozlarga to'lovlar sifatida olingan mablag'larni qaytarish tartibi</p>	<p>Qimmatli qog'ozlar chiqarilishi nozir bo'lmagan deb tan olingan taqdirda, Bank tomonidan olingan obligatsiyalarning nominal qiymati, amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda hisoblangan foizli daromadlar obligatsiya egalari chiqarilish nozir bo'lmagan deb tan olingan sanasidan boshlab 10 (o'n) kun ichida qaytarilishi lozim.</p>
	<p>Qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni saqlash va hisobga olish tartibi, shu jumladan, to'liq firma nomi hamda tegishli faoliyatni amalga oshirishga litsenziya to'g'risida ma'lumotlar</p>	<p>"Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi" DUK to'g'risida ma'lumotlar: To'liq nomi: Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi. Tashkiliy-huquqiy shakli: Davlat unitar korxonasi. Joylashgan manzili va pochta manzili: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Mustaqillik shoh ko'chasi, 107, telefon (+99871) 267-36-94. E-mail: info@deponet.uz. O'zbekiston Respublikasi Markaziy depozitariysi va investitsion vositachilar qonunchilikda belgilangan tartibda bank obligatsiyalarining hisobini yuritadilar. Ushbu chiqarilish doirasida "Alp Omad Invest" mas'uliyati cheklangan jamiyati bilan chiqarilgan obligatsiyalarga huquqlarni ro'yxatga olish bo'yicha investitsion vositachi sifatida xizmat ko'rsatish bo'yicha kelishuv imzolandi. "Alp Omad Invest" mas'uliyati cheklangan jamiyati: Tashkiliy-huquqiy shakli: mas'uliyati cheklangan jamiyat. Yuridik manzili: O'zbekiston Respublikasi, 100070, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Tafakkur tor ko'chasi, 2-11. Telefon: 231-01-39, 233-62-73. E-mail: info@stockinvest.uz. Qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli organ tomonidan 2018-yil 16-avgustda berilgan Qimmatli qog'ozlar egalari hisobini olib borish faoliyatini amalga oshirish huquqiga 1333-sonli litsenziya haqiqiy va muddatsiz.</p>
4	<p>Qimmatli qog'ozlarga bo'lgan egalik huquqining hisobga olinish va boshqaga o'tish tartibiga tegishli asosiy ma'lumotlar keltiriladi</p>	<p>Investitsion vositachilar hujjatsiz qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlar hisobini ularning Markaziy depozitariydagi korrespondent hisobraqamlarida yalpi hisobga olinadigan o'z</p>

		deponentlari hisobraqamlarida yuritishadi. Hujjatsiz qimmatli qog'ozlarga huquqlar oluvchiga belgilangan tartibda uning depo hisobraqamiga tegishli yozuv tushgan vaqtdan boshlab o'tkaziladi va depo hisobraqamidan qonunchilik bilan belgilangan tartibda depozitariy tomonidan berilgan ko'chirma bilan tasdiqlanadi.
	Qimmatli qog'ozlarni joylashtirishda ishtirok etuvchi tashkilotlar (anderrayterlar) to'g'risida ma'lumotlar	Bank obligatsiyalarining ushbu chiqarilishini joylashtirish vaqtida, emitentga qimmatli qog'ozlarni joylashtirish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi, qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilarini jalb etish ko'zda tutilmagan.
	Qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qarorning nusxalari va asl nusxasi hamda qimmatli qog'ozlar emissiyasi prospekti bilan tanishish tartibi va joyi to'g'risida ma'lumot	Obligatsiyalar chiqarish to'g'risidagi qaror, O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi qonuniga muvofiq oshkor etilishi lozim bo'lgan emissiya prospekti matni obligatsiyalar chiqarilishi davlat ro'yxatiga olinganidan keyin O'zbekiston Respublikasi bozor kapitalini rivojlantirish agentligining www.openinfo.uz saytida, "Toshkent" RFB www.uzce.uz saytida, "Kapitalbank" ATB www.kapitalbank.uz saytida joylashtiriladi. Qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qarorning asl nusxasi va nusxalari hamda qimmatli qog'ozlar emissiyasi prospekti bilan ariza asosida quyidagi manzilda tanishish mumkin: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Sayilgoh ko'chasi, 7, telefon: (+998 71) 200-15-15, shuningdek, nusxalari bilan filiallarda tanishish mumkin.
	Qimmatli qog'ozlarni asosiy sotish joylari	Qimmatli qog'ozlarni asosiy sotish joyi "Toshkent" respublika fond birjasidir, Toshkent shahri, Mustaqillik shoh ko'chasi, 107.
	Qimmatli qog'ozlar ushbu chiqarilishi listingiga kiritilishi rejalashtirilayotgan savdolar tashkilotchisi to'g'risida ma'lumot	Ushbu chiqarilish obligatsiyalari savdolar tashkilotchisi "Toshkent" RFB listingiga kiritiladi. Savdolar tashkilotchisining nomi va manzili: "Toshkent" respublika fond birjasi, Toshkent shahri, Mustaqillik shoh ko'chasi, 107.